PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

KISHILIK OLMOSHLARINING LEKSIK MA'NO IFODALASHI VA ULARNING MAZMUN-MOHIYATI

G'aniqulov Jo'rabek Zohid o'g'li
KDPI,o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24392934

Annotatsiya.Mazkur maqola tilshunosligimizda muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqishiga sabab bo'latyotgan asosiy masalaga qaratilgan.Ona tili ta'limida o'qitishning ayrim ilg'or usullaridan foydalanish metodikasi tavsiya etilgan va ularning o'zigaxos xususiyatlari tushuntirilgan. Dars o'tish jarayonida omonim(shakldosh) va polisemantik(ko'p ma'noli)so'zlarni farqlashga doir bir qancha yo'llar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar. Dedaktik ma'no, uslubiy ma'no, odatiy ma'no, birlik, ko'plik**.**

Kishilik olmoshlari "men", "sen", "u", "biz", "siz", "ular" shaxs ma'nosini ifoda etuvchi maxsus so'zlardir. Bu so'zlar matn tarkibidan ajratib olinganda konkret ma'no ifoda etmaydi. Shuning uchun ham bunday so'zlar kontekstda (gapda) beriladi:

Ergashov – majlis raisi labini burdi va bosh chayqab: Men hech qanday maqola yozgan emasman, sizga hech narsa deganim yo'q, – dedi. (A. Qahhor "Munofiq"). Kishilik olmoshlari so'zlovchi – nutq subyekti, tinglovchi hamda uchinchi shaxs ma'nosini ifoda etuvchi maxsus so'zlardir. Bular olmoshlarga xos semantik ma'no deb yuritilgan. Olmoshga xos pragmatik ma'no "men" yoki "biz" shaklining subyektni ifodalashdan tashqari qo'shimcha "manmanlik" ma'nosida qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Jumladan: – **Men o'qitgan yigitlarning hammasi ham kam bo'lgani yo'q! – dedi Xuriniso kerilib. – Tojixonni kechki maktabda o'qitganman! (A. Qahhor). – Men kolxozni opichlab katta qilganman! Kolxozning dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini men bilaman! Akademiyadan keladigan mo'ysafid olimlar ham avval menga uchraydi, men bilan suhbatlashib, undan keyin hujjatlikni ko'radi. Kolxoz to'g'risida kitob yozganman. (A. Qahhor).**

Yodda tuting: Bu matnlarda "manmanlik" ma'nosi "men" kishilik olmoshi vositasida bayon qilingan. Ayrim o'rinlarda "men" o'rnida "biz" kishilik olmoshi qo'llanib, kamtarlikni ifodalaydi, ba'zi hollarda bu ma'no kinoya, kesatiq bilan almashadi hamda bayon qilingan ma'noning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi:

– Butun bir ro'zg'orni ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qilgan ekan. Bizning jiyanimiz to'g'risidagi arzimaydigan masalani pardozlab kecha majlisga solganingiz menga uncha botmay turibdi. O'n bir yashar qiz bolani ezov qilib, bizning obro'yimizni ezovlamasangiz ham bo'lar edi. Bu to'g'rida maktab direktori, o'qituvchilar gapirsa, o'zimga olmas edim, nega desangiz mahmadanalik kasbi. (A. Qahhor).

Ma'lumki, nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko'rsatadi, ular so'zlovchi va tinglovchini ifodalovchi olmoshlardir. Bu, albatta, to'g'ri fikr. Sof

kishilik olmoshi shaxs ma’nosini ifodalashdan tashqari, o‘sha shaxs bilan bog‘liq hodisa va predmetlarni ham ifoda eta oladi:

Qalandarovning jag‘i qimirlab, tomirlari bortdi, quloqlarigacha qizarib ketdi. U energashib etigining qo‘njisini tortar ekan: – Bizning ustimizdan arz qilmagan odam qolmabdi-da... jinoyatimiz ko‘p, mayli peshonamizdan ko‘rdik! – dedi.

Bu matnda “biz” olmoshi “men” kishilik olmoshi o‘rnida qo‘llanib, so‘zlovchi nazarda tutgan ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qilyapti. “Men” o‘rnida “biz” olmoshining qo‘llanishi, birinchidan, so‘zlovchi shaxsning o‘zini muhofaza qilish maqsadida “men va kolxoz” tushunchasini ifodalash bo‘lsa, ikkinchidan, atrofdagilarga nisbatan “kattalik” ma’nosi ifodalanadi. Bu “men boshliq bo‘lishimga qaramasdan, ustimdan arz qilishibdi-da” ma’nosida. “Sen”, “siz” olmoshlari kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq ravishda nutq subyekti hamda tinglovchi orasidagi yaqinlik, hurmat ma’nosini ifoda etadiю

Ertadan keyin... birinchi masala qilib sizning hisobingizni qo‘ysak yaxshi bo‘lar edi. – Mayli, – dedi Qalandarov mamnun bo‘lib, – Sen, sizlar shuncha ish qilganda, men besh-o‘n minut javrab bersam nima qipti! (A. Qahhor).

Ko‘rsatish olmoshlari o‘z nomi bilan shaxs, predmet yoki belgini ko‘rsatadi hamda matn qismlarini bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko‘rsatish olmoshlari nutq vaziyati ta’sirida so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ifoda etadi.

Odamlarning gap-so‘zi, muomalasidan Saida bu yerga bir necha marta kelganini, bular orasiga kirishib ketganini payqab Qalandarovning g‘ashi keldi. U kosani bo‘shatib, yana yarim cho‘mich so‘radi: ikkinchi kosani ham maqtab-maqtab ichar ekan, Saidani bu odamlarga begona toifadan qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi: – Ovqatdan ichmadingiz-a... Bularning ovqati organizingizga yoqmadi... yoqmaydi! (A. Qahhor).

Shu olmoshi nutq subyektining tinglovchiga bo‘lgan qat’iy salbiy munosabati asosidagi kamsitish ma’nosini ifoda etadi:

– To‘g‘ri, lekin dehqonning mehnati boshqacha... dehqon yil – o‘n ikki oy, qishin-yozin mehnat qiladi! – dedi Qalandarov Saidani butkul nodonga chiqargan bir ohangda.

– Qaysi fabrika, qaysi zavod yoki shaxta qish yoki yozda to‘xtab qoladi, – dedi Saida. Qalandarovning da’vosiga qarshi bundday javob hech kimning esiga kelmagan bo‘lsa kerak, hamma kulib yubordi va Saidaning gapini ma’qulladi.

Qalandarov ichida o‘zini so‘kdi: “Shu mahmadana bilan so‘z urishtirib nima obro‘ topar edim, nima kerag’i bor edi?” dedi... (A. Qahhor).

O‘zlik olmoshi o‘z so‘zi bilan ifodalanib, bu so‘zning ma’nosi ham nutq vaziyatida oydinlashadi. O‘z so‘ziga -lar qo‘shimchasini qo‘shib qo‘llash bilan matnda piching, kesatiq ma’nolari bayon qilinadi.

Qalandarovning ro‘y-rost achchig‘i kelib, chakka tomirlari bortdi.

– O‘zlari biladilar, – dedi istehzo bilan, har kimda ham bitta-ikkita majlisda yetkulik gunoh topiladi. Avval sizni sekretarlikka saylaylik, undan keyin nima qilsangiz qilaverasiz! (A. Qahhor).

“Hamma” olmoshi odatda jamlik ma’nosini ifoda etib, “bu olmoshning o‘zagida ko‘plik ma’nosi yotganligi uchun egalikning birlik formalarini olganda ham ko‘plikni ifodalaydi: Ertaga hammang bir

tangadan pul olib kelasanlar. (Oybek)". Hamma olmoshi o‘z semantik tuzilishida jamlik ma’nosi bilan birga ma’lum miqdorda "sizlash" ottenkasiga ham egadir. Bu ottenka so‘z tarkibida jamlik-ko‘plik ma’nosi bo‘lgani holda uning birlik II shaxs shaklida qo‘llanishi semantik zidlikni yuzaga chiqaradi, natijada so‘zning g‘ayriodatiy va individual uslubiy qo‘llanishi yuzaga kelib, so‘zlovchining tinglovchiga munosabati bayon qilinadi:

"...To‘ravoy buva halol, haqiqatgo‘y, aynipaytda cho‘rtkesar, muomalasi... (Oxirgi qator rasmda yarim kesilgan, matn shu yerda uzildi.)

Atoqli otlar ham o‘zida leksik ma’no ifodalash va ishora qilish funksiyasini bajarish nuqtai nazaridan olmoshlardek nominativ qimmatga ega. "...Atoqli otlar logik jihatdan bu, shu, u, o‘sha kabi ko‘rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi. Chunki atoqli otlar ham, bundayoq ko‘rsatish olmoshlari ham semantik jihatdan "tuk" emas, ya’ni ularning har ikkalasi ham muayyan obyektni bevosita ifodalamaydi, balki ayni obyektlarga ishora qiladi, ularni ko‘rsatadi". Atoqli otlar obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi. Jumladan, har qanday atoqli otlar birini-ikkinchisidan farqlash ma’nosida ikkilamchi nomlanish hisoblanadi. Obyektiv nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa, odam, kishi, inson kabi nomlar jonli zot uchun umumiy birlamchi nomlanish hisoblanadi. "Ikkilamchi nomlarga atoqli otlar kiradi... Bu jihatdan atoqli otlar... atash ma’nosiga ega bo‘lmagan "ichi bo‘sh" so‘zlar sifatida o‘zaro umumiylikni hosil qiladi, atoqli otlar faqat narsa otlarini bir-biridan ajratish uchun qo‘llanadi". Atoqli otlarning konkret ma’nosi ham kontekstda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ma’lum matn tarkibidagi axborotning to‘g‘ri bo‘lishi va to‘g‘ri anglanishi uchun atoqli ot hisoblangan...

Atoqli otlarning konkret ma’nosi ham kontekstda namoyon bo‘ladi. Jumladan, ma’lum matn tarkibidagi axborotning to‘g‘ri bo‘lishi va to‘g‘ri anglanishi uchun atoqli ot hisoblangan nom – odam haqidagi real ma’lumot so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham ma’lum bo‘lishi lozim. Safar ismli shaxs haqidagi barcha ma’lumot nutq ishtirokchilariga nutq momentiga qadar ma’lum bo‘lishi shart.

... Jilovxonaga to‘rtinchi kishi kirib keldi. Bunisi jikkak, qirq bilan ellikning orasi, yelkasi turtib chiqqan Safar bo‘zchi ismlik edi. Imomga salom berib, so‘fining yoniga o‘lturdi va so‘zga biroz quloq solgach, tushunar-tushunmas bahsga aralashib qoldi. (A. Qodiriy). Xullas, olmosh va atoqli otlar narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi, ularga ishora qiladi. Ularning ma’nosi, birinchidan, nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda konkretlashadi. Ikkinchidan, ma’noning konkret ifodalanishi uchun so‘zlovchi va nutq ishtirokchilari aniq pragmatik bilimlarga ega bo‘lishi shart.

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi. So‘zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqea-hodisalar o‘zga, ya’ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.
Men, biz birinchi shaxs, sen, siz ikkinchi shaxs, u, ular uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bulardan men, sen, u birlik, biz, siz (lar), ular ko‘plik ma’nosini bildiradi. Ba’zan biz, siz, ular birlik ma’nosida ham qo‘llaniladi. Biz birlik ma’nosida qo‘llanganda, kamtarlik, bajargan ishida o‘zini ta’kidlamaslik ma’nosini bildiradi.
Masalan: Mening uyim o'rniga Bizning uyimiz. Men g'olib chiqdim o'rniga Biz g'olib chiqdik. Shuningdek, siz, ular yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma'nosini ham bildiradi. Masalan: Sen kelding o'rniga Siz keldingiz, U keldi o'rniga Ular keldilar. Dadam shaharda ishlaydi, ular bugun

uyga qaytadi. Siz hurmat ma'nosini bildirganda, ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.

Kishilik olmoshlaridagi fonetik xususiyatlar

1. Tovush tushishi Men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir n tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi. men + ning = mening; sen + ni = seni; men + niki = meniki.

2. Tovush ortishi U olmoshiga -ga- -da, -dan qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir n tovushi ortadi va shunday yoziladi. u + ga = unga u + da = unda; u + dan = undan. U kishilik olmoshi va u ko'rsatish olmoshini bir-biridan farqlash lozim. Ular quyidagicha farqlanadi: U kishilik olmoshi «kim» so'rog'iga javob bo'ladi va asosan shaxs ma'nosini ifodalaydi. Masalan: U bugun keladi. (Kim bugun keladi? - U)

U ko'rsatish olmoshi esa «qaysi?» so'rog'iga javob bo'ladi va gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: U kishi bugun keladi. (Qaysi kishi bugun keladi? - u kishi) Kishilik olmoshlariga egalik qo'shimchalari hech qachon qo'shilmaydi, shuning uchun egalik shakllarini olgan unim, unisi kabi so'zlar, albatta, ko'rsatish olmoshlari hisoblanadiю

Savol va topshiriqlar

➢ Kishilik olmoshlari orqali ifodalangan nutqiy aktlarga badiiy adabiyotlardan misollar keltiring va tahlil qiling.

➢ Senlash va sizlash orqali ifodalangan nutqiy aktlarga badiiy adabiyotlardan misollar toping va ular o‘rtasidagi o‘zaro farqli jihatlarini aniqlang.

➢ Men o‘rnida biz qo‘llangan o‘rinlardan misollar topib, kamtarlik ma’nosi ifodalanishini izohlang.

➢ Atoqli otlarning semantik jihatdan olmoshlarga o‘xshash xususiyatlarini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tili grammatikasi. I qism. – Toshkent, 1975, 336-bet.
2. Mahmudov N. Presupposizitsiya va gap. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1986-yil, 6-son, 30-bet.
3. Nurmonov A., Sarimsoqov B. Til sistemasida so‘zning o‘rni va so‘zlarni turkumlarga ajratish muammolari. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1999-yil, 5-son, 22-bet.
4. Hozirgi zamon o‘zbek tili. Fahri Kamol tahriri ostida. – Toshkent, 1957, 385-bet.
5. Sayfullaeva R.,Mengliyev B.,Boqieva G.,Qurbonova M.,Yunusova Z.,Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek.- tili.-T:.-2007